

GIDROSFERAGA ANTROPOGEN TA'SIR VA UNI HIMOYA QILISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10206347>

Aslonov Baxtiyor Boboqulovich

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, "Bino va inshootlar qurilishi" kafedrası
dotsenti, O'zbekiston Respublikasi*

Annotasiya

ushbu maqolada gidrosfera va suv zahiralari haqida umumiy ma'lumot, suvning biosfera va xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi ahamiyati, suv resurslarini ifloslanishdan muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda suv zahiralarini nazorat qilishning huquqiy asoslari bayon etilgan.

Kalit so'zlar

gidrosfera, tabiiy resurs, Amudaryo, Sirdaryo, suv sarflash koeffisienti, suvning qattiqligi, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik.

АНТРОПОГЕННОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ГИДРОСФЕРУ И ЕЕ ОХРАНА

Аслонов Бахтиер Бобокулович

доцент кафедры "Строительство зданий и сооружений" Бухарского инженерно-технологического института, Республика Узбекистан

Аннотация

В данной статье излагаются общие сведения о гидросфере и водных ресурсах, значение воды в биосфере и отраслях народного хозяйства, меры, направленные на защиту водных ресурсов от загрязнения, а также правовые основы контроля за водными ресурсами.

Ключевые слова

гидросфера, природный ресурс, Амударья, Сырдарья, коэффициент расхода воды, жесткость воды, административная ответственность, уголовная ответственность.

ANTHROPOGENIC IMPACT ON THE HYDROSPHERE AND ITS PROTECTION

Aslonov Bakhtiyar Bobokulovich

*associate professor of the Department of construction of buildings and structures,
Bukhara Institute of engineering and technology, Republic of Uzbekistan*

Annotation

this article describes an overview of hydrosphere and water reserves, the importance of water in the biosphere and national economy networks, measures aimed at protecting water resources from pollution, and the legal framework for controlling water reserves.

Keywords

hydrosphere, natural resource, Amudarya, Syrdarya, water consumption coefficient, water hardness, administrative responsibility, criminal liability.

Yer kurasidagi suvlardan iborat bo'lgan qobiq, gidrosfera deb ataladi. "Gidrosfera" yunon tilidan olingan bo'lib, "gidro" - suv, "sfera" - shar demakdir. Gidrosferaga biosferadagi barcha suvlar - okean, dengiz, ko'l, daryo, qor va muzliklar, er osti suvlari va atmosfera havosi tarkibidagi suv bug'lari kiradi.

Gidrosferaning umumiy suv miqdori tahminan 1403 mln km³ ni tashkil etadi. Shundan okean suvlari 1370 mln km³, muzliklar 24 mln km³, yer osti suvlari 8 mln km³, ko'l suvlari 0.23 mln km³, tuproq tarkibidagi suvlar 0,007 mln km³, daryo suvlari 0,002 mln km³, atmosfera havosi tarkibidagi suvlar esa 0,014 mln km³ni tashkil etadi [1].

Shuni ham yodda tutish kerakki, Yerda tabiiy suvlarning umumiy miqdori 1386 mln km³ni tashkil etadi va yer yuzasining 70 % ni qoplaydi. Asosan bu (97,8 % dan ko'proq) sho'r suv bo'lib, chuchuk suvlar yerning turli qatlamlarida va muzliklarda joylashgan. MDH da chuchuk suvlarning zaxirasi 40,5 ming km³ ni tashkil etadi. Dunyoda bir yilda tahminan 3900 mlrd m³ chuchuk suv sarflanadi. Shundan yarmi iste'mol qilinadi, qolgan yarmi esa oqova suvlarga aylanib qoladi va ifloslangan holda ochiq suv havzalariga oqiziladi. Suvning sarfi esa har 12 yilda 2 barobar ko'paymoqda. Buning asosiy sababi dunyo miqyosida yuz bergan "demografik portlash" dir [2].

Dunyo aholisi sonining o'sib borishiga, demografik portlash deb ataladi. Darhaqiqat, BMT tarqatilgan ma'lumotlarga qaraganda, dunyo aholisi 2 mln yil davomida 1830 yili 1 mlrddan ko'proq kishini tashkil etgan. Bundan 100 yil o'tgandan keyin (1930 y), 2 mlrd kishini, 30 yil o'tgandan keyin (1960 y), 3 mlrd kishini, 15 yil o'tgandan keyin (1975 y), 4 mlrd kishini, 11 yil o'tgandan keyin (1986 y), 5 mlrd kishini, 29 yil o'tgandan keyin (2015 y), 7 mlrddan oshiqroq kishini tashkil etgan. Demak, aholining chuchuk suvga bo'lgan ehtiyoji kundan - kunga

ortib bormoqda. Hozirgi paytda dunyo aholisining 1/3 qismi ichimlik suvi tanqisligiga uchragan.

Suv barcha tirik organizmlar uchun hayot manbai bo'lib, u tabiatda 3ta agregat holatlar (qattiq (muz), suyuq va bug)da uchraydi. Dunyodagi suvlarning 94% okeanlardadir. Miqdor jihatidan olganda, suv tugamaydigan tabiiy resurslar guruhiga, sifat jihatidan olganda esa, u tugaydigan tabiiy resurslar guruhiga kiradi. Bitmas to'ganmas hisoblangan okean, dengiz, ko'l va daryo suvlarining kimyoviy tarkibi tabiiy va sun'iy yo'llar bilan (masalan, sanoat chiqindilari bilan) bir yilda yoki bir faslda o'zgarib ketishi mumkin. Shuning uchun inson uchun xar qanday suv emas, balki iste'mol qilishga yaroqli toza ichimlik suvi kerak. Fotosintez jarayonning asosiy elementi suv H₂O hisoblanadi [3].

“Suvga tupurmang, makruh bo'ladi!”, “Biz tiriklikni suvda yaratdik!”, deyiladi Qur'oni Karimda. Shuning uchun suvni “obi hayot” deymiz. Darhaqiqat, suvsiz hayot yuq! Suv biosferada va kundalik hayotimizning barcha sohalarida keng qo'llanilishi bilan boshqa tabiiy resurslardan tubdan farq qiladi. Masalan, tabiiy yoqilg'i turlari (ko'mir, neft, gaz issiqlik va elektr energiyasi, Quyosh energiyasi, atom energiyasi va b.) biri ikkinchisini o'rnini bosa olishi mumkin. Ammo kundalik hayotimizda, biosfera va ishlab chiqarish korxonalarida suvning o'rnini bosa oladigan boshqa tabiiy resurs yo'q!

Suvning kundalik hayotimizda, biosfera va ishlab chiqarish korxonalaridagi mohiyati quyidagilardan iborat [4].

1. Suv biosferadagi barcha kimyoviy, biologik va fizik jarayonlarda va, xususan, fotosintez jarayonining kechishiga, modda va energiya almashinishiga faol qatnashadi. Masalan, fotosintez jarayoni tufayli yiliga 225 mlrd tonna kislorod ajralib chiqadi, qariyb 300 mlrd tonna turli organik moddalar hosil bo'ladi.

2. Yer kurasidagi barcha suv manbalari (okean, daryo, dengiz, ko'l, muzliklar, suv havzalari va b.) sayyoramizda issiqlik rejimini, ya'ni iqlimni tartibga solib turadi. Bundan tashqari, gidrosferadagi suv yozda Quyosh energiyasini yutib, qishda atrof – muhitni sovib ketishdan muhofaza qiladi. Atmosfera havosi tarkibidagi suv bug'lari esa, Quyosh radiatsiyasining filtri hisoblanadi.

3. Suv barcha tirik organizmlar uchun asosiy yashash vositasidir, chunki har qanday tirik organizm to'qimalarida ma'lum miqdorda suv bo'ladi. Masalan, o'simliklar va hayvonot to'qimalarida 50-90 % atrofida, gusht tarkibidagi 50 % sutda 85-90 %, voyaga etgan kishi tanasida 70 % gacha, yosh chaqaloqlarda esa 97 % gacha suv bo'ladi.

4. Suvsiz kimyoviy, biologik, biokimyoviy, fizik va texnologik jarayonlar amalga oshmaydi. Suv ishlab chiqarish korxonalarida asosiy yoki qushimcha xom –

ashyo, energiya manbai, sotuvchi, isituvchi, yuvuvchi, ajratuvchi, biriktiruvchi, okartiruvchi modda, kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiruvchi kattalizator, xom – ashyo va materiallarni tashuvchi vosita sifatida qo'llanilishi mumkin. Ko'pqina holatlarda qurilmalar suv yordamida sovitiladi.

5. Suv tirik organizmlar tanasida haroratni boshqaruvchi modda, ya'ni termoregulyator vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun 1 kishi atrof – muhit harorati va jismoniy mehnat ko'lamiga qarab, bir sutkada 2 -5 litr suv iste'mol qiladi [5,6].

Hozirgi paytda aholi sonining o'sib borishi tufayli Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan O'zbekistonda, ichimlik toza suviga bo'lgan ehtiyoj kunsayin ortib bormoqda. Shuning uchun tabiiy suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni ifloslanishdan muhofazalash, suvning sifati va sarflanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish, foydalanilgan suv hajmi uchun haq to'lovini joriy etish, korxonalarda yopiq suv ta'minoti tizimiga o'tish, chiqindisiz va kam chiqindili texnologiyalarni joriy etish, suvni tozalash qurilmalari va inshootlaridan samarali foydalanish, xususan, 1993 yil 6 mayda qabul qilingan "Suv va undan oqilona foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi. Qonuni talablariga qat'iy rioya qilish – oqova suv miqdorini keskin kamaytirish va toza ichimlik suvini tejash imkonini beradi.

Antropogen ta'sirlarsiz tabiiy jarayonlar tufayli sifat va miqdor jihatidan shakllanadigan suvlarga, tabiiy suvlar deb ataladi.

Tabiiy suvlarning Yerdagi umumiy miqdori 1386 mln km³ ni tashkil etadi. Uning qariyb 97-98 % ni sho'r suvlar tashkil etadi. Chuchuk suvlarning miqdori esa 35 mln km³ ni tashkil etadi va ular asosan muzliklarda va Yer qatlamining chuqur joylarida bo'ladi.

MDH da yer usti chuchuk suvlarning zaxiralari 40,5 mln km³ ni tashkil etadi. Dunyoda yiliga 3900 mlrd m³ chuchuk suv sarflanadi, shundan qariyb yarmi iste'mol qilinadi, qolgan qismi oqova suvga aylanadi [7].

Suv resurslarini ifloslanishdan muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar:

1. Suv resurslarini ifloslanishdan muhofaza qilish va uning dastlabki xossalari tiklash uchun, avvalombor, 1993 yil 6 mayda qabul qilingan. «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni talablariga kat'iy rioya qilish zarur.

2. Sanoat korxonalarida ilg'or texnologiyalarni joriy etish, oqova suvlar miqdorini kamaytirishga erishish, suvdan qayta foydalanishning berk tizimiga o'tish nafaqat iqtisodiy, balki yuksak ekologik ahamiyatga ega. Shuni eslatib o'tish

kerakki, hozirgi paytda neft va gaz sanoati 60-70%, energetika 50 % va oziq-ovqat sanoati 30-40 % aylanma (berk) suv ta'minoti tizimiga ega. Suvdan aylanma uslubda foydalanish hisobiga Olmaliq kimyo kombinati yiliga 10 mln. m³ toza suvni tejashga erishmoqda.

3. Suvdan samarali foydalanish va uning dastlabki xossalarini qayta tiklashning birdan-bir yo'li – sanoat korxonalarini bir-biriga yaqin joylarga qurish va suvdan hamkorlikda foydalanishdir. Bu esa suvni tejashga katta yordam beradi. Suvni tozalash va zararsizlantirishga ixtisoslashtirilgan inshootlardan samarali foydalanish uning dastlabki xossalarini tiklashga nihoyatda katta yordam beradi.

4. Sanoat korxonalaridagi asbob-uskunalar va texnologik jarayonlarni suv bilan emas, balki havo yordamida sovo'tish suvni tejashga katta yordam beradi. Bu esa faqatgina sovo'tish tizimida ishlatiladigan suvlarning 60-70% tejash imkonini beradi.

5. Suvdan samarali foydalanish va kanalizatsiyaga oqizishning iqtisodiy me'yorlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, ishlatilgan suv uchun to'lov joriy etish, oqova suv miqdorini kamaytirishga imkon beradi va suvdan samarasiz foydalanishga chek kuyadi. Hozirgi paytda ko'pgina shaharlarda, shu jumladan, Buxoro shahrida maxsus suv o'lchagich asboblari o'rnatilgan.

6. Suvning minerologik tarkibi va tuproq xususiyatlarini hisobga olib, oqava suvlardan sug'orish tizimida foydalanish katta iqtisodiy daromad garovidir. Shahar oqova suvlari bilan sug'orilgan yerlarning hosildorligi oddiy suv bilan sug'orilgan yerlarga isbatan 5-6 marotaba, chorvachilik oqovalari bilan sug'orilgan ozuqa ekinlarining hosildorligi esa, 4 marotaba oshganligi aniqlangan. Oqova suvlaridan sug'orish tizimida qo'llanishning yana bir afzallik tomoni shundaki, har bir gektar yerga kiritiladigan mineral o'g'itlar hamda 2-3 ming m³ toza suv tejaladi. Hozirgi paytda respublikamiz miqyosida sutkasida 4 mln. m³, viloyatimizga esa 200 ming m³ oqava suvlari paydo bo'ladi. Yaqin kelajakda oqova suvlarining yillik miqdori 6 km³ ni tashkil etilishi kutilmoqda. Agar ushbu oqova suvlaridan sug'orish tizimida foydalanilsa, 600 ming gektar yerlarni sug'orish imkoniyati tug'iladi. Buxoro viloyatidagi oqova suvlaridan sug'orish tizimida deyarli foydalanilmaydi [5,8].

Chorvachilik korxonalarida paydo bo'ladigan har 1 m³ oqovalarning tarkibida 1 kg fosfor, 2,5 kg kaliy va 3 kg azot mavjud ekanligi aniqlangan.

Respublikamiz hududida 50 dan ortik parrandachilik korxonalari mavjud bo'lib, ulardan yiliga 7 mln. m³ turli kimyoviy tarkibga ega bo'lgan chiqindilar paydo bo'ladi. Ularni 1:1 yoki 1:2 miqdorda toza suv bilan qoshib yem-xashak ekinzorlarni sug'orilsa, yer hosildorligini 15-20% ga oshirishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasida 1993 yil 6 mayda «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonun qabul qilingan. Suvga doir munosabatlarni tartibga solish, aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanishdan, suvni buglanish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash, suvning zararli ta'sirining oldini olish va uni bartaraf etish, suv ob'ektlarining holatini yaxshilash, shuningdek, suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, dexkon xo'jaliklari va fukarolarning huquqiylarini himoya qilish ana shu qonunning vazifasidir [9].

Suvning ifloslanishi deganda, sanoat korxonalarini, maishiy kommunal xo'jaligi, chorvachilik va qishloq xo'jaligi korxonalaridan chiqariladigan chiqindilar, neft va moylovchi mahsulotlar, o'simlik va hayvonot qoldiqlarining suvga aralashuvi natijasida uning kimyoviy tarkibi, organoleptik ko'rsatgichlari (ta'mi, mazasi, hidi, rangi), fizik xossalari (suvning qattiqligi, shurlanish darajasi va b.)ning o'zgarishi tushuniladi.

Dunyo okeanlariga yiliga 10 mln. tonna neft va 71 % dan ko'prok ifloslantiruvchi moddalar daryo suvlari bilan birga kelib qo'shiladi. Shundan 2 mln. tonnasini marganets, 2-3 mln. tonnasini qo'rg'oshin birikmalari, 6,5 mln. tonnasini fosforli birikmalar va 320 mln. tonnasini esa temir birikmalari tashkil etadi [10].

O'rtacha quvvatga ega bo'lgan bitta kogos kombinati 2 mln. nafar aholiga ega bo'lgan shahar oqava suvlari miqdoriga teng chiqindiga ega.

Avtotransport korxonalarini, neft va gaz mahsulotlarni qayta ishlash korxonalarini ochiq suv havzalarini neft mahsulotlari (benzin, kerosin, avtol, nigrol va b.) bilan ifloslantiradi. Bir tonna neft mahsuloti okean suviga tushganda suv yuzasida 12 km² maydonda moy pardasini hosil qiladi. Natijada suv tarkibida kislorod miqdori keskin kamayib, suvdagi tirik organizmlarning kirilib ketishiga sabab bo'ladi.

Agar 2 sutka davomida ochiq suv havzalariga oqizilayotgan oqova suvlarning miqdori belgilangan me'yorlarga nisbatan 20-29 baravar oshib ketsa yoki 8 soat vaqt davomida zaxarli moddalarning miqdori 30-45 baravar oshib ketsa, korxonada favko'lodda holat e'lon qilinishi mumkin. Bunday holatlarda korxonada ish faoliyati tuxtatiladi, zudlik bilan favko'lodda holatni bartaraf etish uchun ekologik, epidemologik va boshqa chora-tadbirlari belgilanib, amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, suv havzalari uchun favko'lodda holat ballar orqali belgilanadi. Agar suv havzalarining ifloslanishi 4 balldan oshib ketsa, u yuqori darajada ifloslangan hisoblanadi.

Agar suv tarkibida erigan kislorodning miqdori 2 mg/l dan kam bo'lsa, erigan organik moddalarning miqdori 60 mg/l ni tashkil etsa va suv manbalariga

oqizilgan neft mahsulotlari qoplangan parda maydoni 2-6 km² tashkil etganda, favko'lodda holat e'lon qilinadi.

Iflos oqova suv tarkibida erigan moddalar kantserogen zaxarli moddalar (margimush, tsianid, xrom, kaliy, mis, qo'rg'oshin, simob va b.), radioaktiv elementlar (uran, tseziy, kobalt va b.) infektsiya tarkatuvchi bakteriyalar va muallak moddalar bo'lishi mumkin. Bir litr oqova suv tarkibida bunday moddalarning miqdori 100-1150 mg bo'lishi mumkin [11].

Avvalambor, shuni eslatib o'tish kerakki, **O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunining 4-moddasida davlat suv fondi va unga egalik qilish masalalari o'z aksini topgan.**

Daryolar, ko'llar, suv omborlari, yer usti suv havzalari, kanal va xovo'z suvlari, yer osti suvlari va muzliklar respublikamizning yagona suv fondi hisoblanadi.

Davlatlararo daryolar (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi va boshqa suvlar)dan foydalanish huquqiyi davlatlararo bitimlarda belgilab beriladi.

Suv - O'zbekiston Respublikasining davlat mulki-umummilliy boylik hisoblanadi, u davlat tomonidan qo'riqlanadi.

Suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy xoqimiyat va boshqaruv organlari, shuningdek, bu sohada maxsus vakolatli bo'lgan hamda suvdan foydalanishni bevosita yoki havza (hududiy) boshqarmalari orqali tartibga solib turuvchi davlat organlari va boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunning 8-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (yer usti suvlari), O'zbekiston Respublikasi davlat geologiya va mineral resurslari qo'mitasi (yer osti suvlari) hamda O'zbekiston Respublikasi Sanoatda va konchilikda ishlarning xatarsiz olib borilishini nazorat qilish davlat kunitasi (yer osti issiq suvlari va mineral suvlar) o'z vakolatlari doirasida suvdan foydalanishni tartibga solish sohasida maxsus vakolatli bo'lgan davlat organlari hisoblanadilar [12].

O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunida, ma'muriy, mehnat, jinoyat va fukarolik kodekslarida mazkur muammo bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarliklar belgilangan.

«Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 114 va 115-moddalariga asosan, quyidagi holatlarda aybdor bo'lgan shaxslar ma'muriy, jinoiy va o'zga tarzdagi javobgarlikka tortiladilar:

1. Suvdan foydalanish huquqiyini boshqaga berish, hamda davlatning suvga egalik qilish huquqiyini oshqora yoki yashirin shaklda bo'zadigan boshqa bitimlarni tuzish;
2. Yuqorida ko'rsatilgan bitimlarni tuzishda aybdor bo'lgan shaxslar, shuningdek, suv ob'ektlarini o'zboshimchalik bilan egallab olgan yoki suvdan o'zboshimchalik bilan foydalanish;
3. Suvdan foydalanish limitlarini buzgan holda suv olish;
4. Daryolari bulg'ash va ifloslantirish;
5. Suvni bulg'ash va ifloslashning yoki suv etkazadigan zararli ta'sirning oldini oladigan inshootlari va qurilmalari bo'lmagan korxonalarni, kommunal ob'ektlarni va boshqa ob'ektlarni ishga tushirish;
6. Suvdan (suv ob'ektlaridan chiqarib yoki ajratib olingan suvdan) xo'jasizlik bilan foydalanish;
7. Suv havzalarida suvni muhofaza qilishni buzib, uning bo'lganishiga, tuproqni suv yuvib ketishiga va boshqa zararli hodisalar ruy berishiga sabab bo'lish;
8. Suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalariga shikast etkazish va ularni vayron qilish;
9. Suv xo'jaligi inshootlarini va qurilmalarini ishlatish qoidalarini buzish;
10. Suvning holatiga ta'sir kiluvchi to'siqlar, nasos stantsiyalari va boshqa inshootlarni o'zboshimchalik bilan qurish;
11. Suv haqi va suvdan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun solinadigan jarimalarini o'z vaqtida to'lamaslik;
12. Rejalarda ko'zga tutilib, suvga bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishidan saqlashni, shuningdek, suv holati va rejimini yaxshilashni ta'minlovchi texnologiya, gidrotexnika, urmon-melioratsiya, sanitariya-texnika tadbirlari va boshqa tadbirlarni amalga oshirmaslik;
13. Suvni vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulash;
14. Foydalanish va kuzatish quduqlarini yo'q qilib tashlash yoki ularga zarar etkazish;
15. Suv quduqlarini burgilashning belgilangan qoidalari va texnologiyasini buzish;
16. Suvni muhofaza qilish inshootlari va qurilmalarini qurishning me'yoriy muddatlarini barbod qilish;

17. Qurilishi tugatilmagan suvni muhofaza qilish inshootlarini ularning samarali ishlashiga salbiy ta'sir etuvchi kam-kustini bitirmay va loyixadan chetga chiqishlar bilan foydalanishga topshirish;

18. Suvni muhofaza qilish tegralariga rioya etmaslik;

19. Suvdan foydalanganlik haqidagi davlat hisobotlarni takdim etmaslik yoki ushbu ma'lumotlarni buzib ko'rsatish;

20. Tabiatni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlarning ko'rsatmalarini bajarmaslik;

21. Alohida qo'riqlanadigan suv ob'ektlari rejimini buzish [13].

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida" gi kodeksning 72-moddasiga asosan, suvlarni ifloslantirish yoki bulgatish, suv yiguvchi inshootlarda suvni muhofaza qilish rejimini buzish - fuqarolarga eng kam ish haqining 1/3 qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa-bir baravaridan 3 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Korxonalarni, kommunal va boshqa ob'ektlarni suvlarining ifloslanishi va bo'lganishi yoki ularning zararli oqibatlarini oldini oluvchi inshootlarsiz va qurilmalarsiz va foydalanishga topshirish, shuningdek, suv ob'ektlarining tabiiy holatini bo'zuvchi boshqa harakatlar qilish-mansabdor shaxslarga, eng kam ish haqining bir baravaridan 3 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi [4,10].

Suv quduqlarini qazishning belgilangan qoidalarini va texnologiyasini buzish, ishlatilayotgan va kuzatuv quduqlarini yo'q qilib yuborish yoki shikastlantirish, suv o'zi chiqadigan quduqlarni tartibga solinadigan qurilmalar bilan jixozlash, shuningdek, ishlatishga yaroqsiz quduqlarni konservatsiyalash yoki yo'q qilish choralarini kurmaslik, sifatli yer osti suvlari hosil bo'ladigan tegrada suvning ifloslanishi yoki sifati yomonlashishi manbai bo'lib qolishi mumkin bo'lgan sanoat, qishloq xo'jalik inshootlari va boshqa ob'ektlarni joylashtirish - fuqarolarga eng kam ish haqining 1/2 qismi dan 1 baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa-1 baravaridan 3 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqiybuzarliklar ma'muriy jazo chorasi ko'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilsa - fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan 3 baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - 3 baravaridan 7 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

"Ma'muriy javobgarlik to'g'risida" gi kodeksning 74-moddasiga asosan, suvdan xo'jasizlarcha foydalanish, gidrotexnika ishlarni o'zboshimchalik bilan bajarish, suvdan foydalanish limitlari va rejalarini buzgan holda suv olish,

shuningdek, loyixada nazarda tutilgan baliklarni muhofaza qilish inshootlari va qurilmalari bo'lmagan suv manbalaridan suv olish – fuqarolarga eng kam ish haqining 1/3 qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa -1 baravaridan 3 baravarigacha miqdordan jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqiy buzarlilar ma'muriy jazo chorasi ko'llanilganida, keyin 1 yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa,- fuqarolarga eng kam ish haqining 1 baravaridan 3 baravarigacha mansabdor shaxslarga esa 3 baravaridan 7 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi [11,12].

Suv ob'ektlaridan olinadigan va kuyiladigan suv miqdorining dastlabki hisobini yuritish va kelib qo'shilayotgan suvlar sifatini aniqlash qoidalarini buzish, shuningdek, davlat suv kadastri yuritishning belgilangan tartibini buzish - mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining 1 baravaridan 3 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqiy buzarlilar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin 1 yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - mansabdor shaxslarga 3 baravaridan 7 baravarigacha miqdorda jarima solishga majbur bo'ladi. (Qonunning 75 moddasi).

“Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi kodeksning 76-moddasiga muvofiq, suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalarini shikastlantirish, - eng kam ish haqining 1/3 qismidan 1 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish,-mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining bir baravaridan 3 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, jinoyat hisoblanadi. «Jinoyat kodeksi»ning 203-moddasiga asosan – eng kam ish haqining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima solinadi yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq, yoki 3 yilgacha ozodlikdan maxrum qilish bilan jazolanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aslonov B.B. Environmental Problems and possible solutions. European journal of Technical and Natural Sciences, №2 2020, Vienna 2020.

2. Аслонов Б.Б. Прочность и дефектность наполненных полимерных материалов. UNIVERSUM: технические науки, Выпуск: 4(85), апрель, 2021, Часть 4, С. 54-57.

3. Аслонов Б.Б. Исследование взаимодействия тоннельных конструкций с грунтовыми массивом при воздействии динамических нагрузок. UNIVERSUM: технические науки, Выпуск: 4(97), апрель, 2022, С. 25-30.

4. Aslonov B.B. Mathematical bases of the finite element method for solving axisymmetric problems. World wide journal of multidisciplinary research and development, 2022 y. 92-95 bet.

5. Tursunova N.N. First and measures organization. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology (IJIERT). Volume 7 - Issue 4, April 2020. P. 243-245.

6. Турсунова Н.Н. Загрязнение воздушного пространства – угроза экологической безопасности в Узбекистане. “Техника и технология пищевых производств” Материалы XII Международной научно-технической конференции (Могилёв, 19–20 апреля 2018 года) Том 2, с. 425-426.

7. Tursunova N.N. Research of the process of storage of soyben based on system thinking. International Journal of Advanced Science and Technology. Volume 29, №7 2020. P.11764- 11770 (<http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/27848>).

8. Tursunova N.N. Study of physical and chemical parameters of soybean grain during storage. IOP Conf. Series: Earth and Environmental Sciens 848 (2021) 012184 doi:10.1088/1755-1315/848/1/012184.

9. Tursunova N.N. The essence of emergency preparedness, ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137. Vol. 12, Issue 11, November 2022. P. 103-108.

10. Tursunova N.N. The essence of spiritual and spiritual preparation in emergency situations. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, ISSN: 2249-7137 Vol. 12, Issue 11, November 2022, SJIF 2022 = 8.252.

11. Турсунова Н.Н. Биотехнологический потенциал и пищевая безопасность семян масличных сортов подсолнечника в Узбекистане. Universum: технические науки: научный журнал. – № 7(100). Часть 2. М., Изд. «МЦНО», 2022. С. 65-68.

12. Турсунова Н.Н. Чрезвычайные ситуации экологического характера и их последствия. O'zbekistonda fanlari innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 13-son, 20.11.2022 y. С. 297-302.

13. Tursunova N.N. The essence of emergency preparedness. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249 7137 Vol. 12, Issue 11, November 2022. P. 103-108.